


Madiyar ABDULLAYEV

GEOGRAFIYANI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH





Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani
22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Madiyar ABDULLAYEV

GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

(“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografyasi” fani misolida)

o‘quv qo‘llanma

2023-yil

Ushbu o'quv qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining geografiya darsliklari asosida tuzilgan. Geografiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodikalar, o'yinlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni olib borish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan.

Qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining geografiya fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning geografiya faniga oid metodik bilimlarining oshishiga xizmat qiladi.

Muallif:

Madiyar Abdullayev

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi
22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabning
oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi,
CHDPU "Geografiya" kafedrası tadqiqotchisi

Taqrizchilar:

Furqat Rajabov

CHDPU "Geografiya" kafedrası mudiri,
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dilobar Safarova

Nurafshon shahridagi Prezident maktabining
oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani Xalq ta'limi bo'limi Metodik kengashining 2023 yil 16 yanvardagi 11-sonli majlis bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Jahon ta'limida zamonaviy va safatli bilim berish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. XXI asrda ta'lim yangi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni shakllantirmoqda. Jahonda ta'lim sohasining rivojlanishi fanlarni interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar globallashev sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Natijada eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta'limning barcha bosqichlarida, ta'lim-tarbiya berish va natijalarni baholash samaradorligini oshirish, o'qitish usullarini takomillashtirish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Maktabda ta'lim berishning zamonaviy tizimi jahondagi va milliy muammolarni hamda inqirozlarni yechishga qaratilishi lozimdir. Bunda ayniqsa geografik bilimlarning zarurati ahamiyatlidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fani dunyoning tabiiy resurslari, aholisi va xo'jalik faoliyatini o'rganishi hamda iqtisodiy-ijtimoiy hayotning hududiy tashkil etilishi qonuniyatlarini tavsiflaganligi uchun bu fan mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan yanada integratsiyalashuviga zamin yaratadi. Bunday sharoitda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanining ahamiyati ortib bormoqda.

I-BOB. “JAHON IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYASI” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jahondagi ko‘pgina mamlakatlarda “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitish mazmunini yanada takomillashtirish eng muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida qaramoqda. Mazkur tadqiqotlarda “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” darslarida pedagogik, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, o‘quvchilarning mazkur fan bo‘yicha bilim olish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar iqtisodiyot sohalari va ilm-fan sohasidagi islohotlar umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida geografiya ta‘limini isloh qilishga ahamiyat berilmoqda. Geografiya fani sohasida ham ta‘lim jarayoniga ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy etish, o‘quvchilarning “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qish orqali bilim darajasining oshirishga xizmat qiladi. Geografiya ta‘limi sohasida, jumladan, “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanining o‘qitish amaliyotiga ta‘limning innovatsion shakllarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu vazifani amalga oshirishda hozirgi zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati alohida o‘rin tutadi. Pedagog o‘quvchilarga bilim beruvchi sifatidagina emas, balki ularning o‘qishi, izlanishi va fikrlashi uchun sharoit yaratib beradigan shaxs sifatida turishi lozimdir.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi o‘quvchilar uchun yuqorida qo‘yilgan masalalar kabi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” faniga oid bilimlarni tayyor holda emas, mustaqil bilim olish yo‘llarini o‘rgatish, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya darslarida o‘quv jarayonini ilmiy-ijodiy tashkil etish hamda o‘quvchilarga nostandart vaziyatlar yaratish orqali muammoni aniqlash va uni yechish yo‘llarini bajarishi uchun amaliy ko‘nikmalar shakllantirish masalasi ahamiyatlidir.

“Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitish jarayonida mazkur fan o‘quvchilarga jahon va uning ayrim qismlariga xos betakror geografik xususiyatlarni ko‘rsatib berishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni va qonuniyatlari haqida batafsil ma’lumot berishi bilan ahamiyatlidir. Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchining sifatli ta’lim berishi fanni o‘qitishda yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish darajasi qanchalik shakllanishiga bog‘liq.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitish sifatini yaxshilash va takomillashtirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va amaliyotga tadqiq qilinmaganligi, fanni o‘qitishda foydalaniladigan elektron resurslarini yaratish, onlayn ta’lim olish uchun ilovalarini yaratish, undan foydalanish metodikasini yaratish ishlab chiqish zarurati, yangi metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan uslubiy qo‘llanma hamda tavsiyalarning mavjud emasligi mazkur tadqiqot yo‘nalishi mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Jahon ta’limida har qanday fanni ta’lim oluvchilar yaxshi o‘zlashtirishi va hayotiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi uchun ilmiy tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy maqsadi esa fanni o‘qitishning sifat va samaradorligi oshirish hisoblanadi. Shu tariqa ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va har bir fanga doir didaktik materiallardan samarali foydalanish imkoniyatlari oshib boradi.

Geografiya ta’limi metodikasining rivojlanishi yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, ilg‘or metodlarni qo‘llash bilan bog‘liqdir. Ushbu muammolarning yechimini topish ko‘p jihatdan geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardaga asoslanadi.

Bugungi ta’lim tizimi eski mazmundagi o‘quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o‘qitish tizimiga o‘tmoqda. Shunga mos ravishda ta’lim

berishga yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharofati bilan o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, o'qituvchi tashkilotchiga aylanmoqdalar.

Ayrim o'qituvchilar uchun bunday o'zgarish oson bo'lmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, shaxslararo munosabatlarni o'rnata olish qobiliyati zarur bo'lganligi sababli, o'quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Demak hozirgi kundagi zamonaviy ta'lim o'quvchilar uchun quydagi talablarni qo'yimoqda. XXI asr ko'nikmalari, ya'ni bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy kompetensiyalarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ularda mehnat ko'nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish imkonini beruvchi ba'zi zamonaviy texnologiyalar va o'qitish metodlaridan samarali foydalanishni keltirish mumkin.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining darsligida nazariy masalalarga ancha e'tibor kuchaytirilgan bo'lib, asosiy iqtisodiy geografik tushunchalarni ortishi bilan birga rivojlantirilib, takomillashtirilib borilmoqda. Fanning o'qitilish mazmunini ancha mukammal tahlil qilishga, sabab–oqibat aloqalarini tushuntirishga ko'proq ahamiyat berilgan. Shu munosabat bilan o'quvchilarni iqtisodiy geografianing ilmiy asosini tashkil etuvchi nazariy masalalar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar hamda ularni yechish yo'llarini izohlash, fan oldida turgan asosiy vazifalar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limda har qanday pedagogik texnologiyalar va metodlarning natijaviyligi uni qo'llayotgan o'qituvchining ijodiy va kasbiy mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchining kasbiy mahorati, o'quvchilarning individual xususiyatlari va qiziqishlari, ta'lim muhiti va mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda to'g'ri tushunilgan, tanlangan va qo'llanilganda ko'zlangan pedagogik maqsadga erishish imkonini beradi.

Ammo, hamma o'qituvchilar ham metod, ta'lim metodlari, ta'lim usuli va interfaol metod kabi tushunchalarni yaxshi farqlay olmaydi.

Metod so'zi yunoncha tadqiqot maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etadi.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.

Ta'lim usuli - o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun hamda qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Metod – eng umumiy ma'noda maqsadga erishish yo'li, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Metod o'quv maqsadiga erishish yo'li bo'lsa, usul metodning alohida tomoni yoki tarkibiy qismidir. Masalan, geografiya darslarining quyi sinflarida o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o'qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchining namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchilarning ayrimlari esa, "metod" tushunchasining o'rniga "uslub" tushunchasini ham qo'llaydilar. Ammo "uslub" tushunchasi "metod" atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko'proq xususiy (so'z borayotgan holatda aynan o'qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo'lib, aniq maqsadga erishish yo'li sifatida xizmat qila olmaydi.

Interfaol metod - o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi va o'quvchini faollashtirishga qaratilgan o'qitish usullari majmui hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda pedagogik va metodik adabiyotlarda metodlarni "faol", "sust", "interfaol" kabi turlarga tasniflash holati qayd etilmoqda. Aslida faol (aktiv) va sust (passiv) metodning o'zi bo'lmaydi. Mazkur metodlar tasnifi

o'quvchining jismoniy holati va harakatiga nisbatan shartli olingan. Dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish muhim, biroq bu tushuntirish metodini kam ta'sirga ega deyish uchun asos bo'la olmaydi. O'quvchilarni tashqi tomondan faollikka undamaydigan metodlarda o'quv faoliyatining eng asosiy shakli hisoblangan mnemonik (ya'ni ichki) harakatlar – o'quvchining o'rganilayotgan materialni idrok etishi, tasavvur qilishi, tahlil etishi, xulosa chiqarishi kabilar mavjud bo'lishini inkor etmaslik kerak.

Interfaol metodlar boshqa metodlar singari o'quv mashg'ulotining tarkibiy qismi sifatida darsda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini tashkil etishga yordam beradi. Darsdagi texnologik jarayonni amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi. Interfaol metodlarning eng asosiy xususiyati o'quvchilarni faollashtirish, fikrlashini rivojlantirish va tahliliy xulosa chiqarishga imkon berishidir. Interfaol metodlarni mutlaqlashtirib qo'yish ham o'rinli emas, chunki interfaol metodlar yangi bilimlarni berishga xizmat qilmaydi. Ana shu sababli ular bir necha asrlardan bo'yon qo'llanib kelayogan suhbat, hikoya, tushuntirish, ko'rsatish, namoyish etish, didaktik o'yin kabi metodlarni chetga surib qo'ya olmaydi. O'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, ularni fikrlashga va faollikka undab bo'lmaydi. Chunki “bo'sh bosh fikrlamaydi”, fikr yuritish uchun narsa-hodisa haqida yetarlicha bilimga ega bo'lish kerak!

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog'liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Metodika o'quv jarayonini qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay tarzda amalga oshirishga diqqat e'tiborni qaratadi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o'qitishni metodlar asosida ayrim mavzularga mos holda misollari bilan quydagicha ko'rib chiqamiz.

1. “Geoklaster” texnologiyasi. Mazkur texnologiya 9-sinf “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fani “Jahon aholisi” bobining “Amaliy mashg'ulot” mavzusida qo'llaniladi. Bu mavzu “Jahon aholisi” bobining eng so'nggi mavzusi hisoblanganligi uchun “Amaliy mashg'ulot” mavzusida “Jahonning demografik muammolari” deb

nomlandi. Ushbu texnologiyaning nomi “Geoklaster” deyilishiga sabab, texnologiyani qo‘llashda uning tarmoqlanadigan ko‘rinishda tasvirlanishi, ushbu chizmalar ichiga mavjud muammolarning yozilishini hisobga olib, ramziy ma’noda “Geoklaster” deb nomlangan. Mazkur texnologiya orqali o‘quvchilar demografik muammolarni o‘rganish, balki muammolarni tahlil qilish barobarida ularning echimini topadi va taqdimotini o‘tkazadi (1-rasm).



1-rasm. “Geoklaster” texnologiyasi.

Ushbu texnologiyani o‘tkazish 3-bosqichdan iborat.


1-bosqich. O‘quvchilar zamonaviy demografik muammolarni berilgan chizmasining yoniga yozib boradilar.

2-bosqich: Berilgan muammolarni echimi o‘qituvchi tomonidan berilgan tarqatmaga o‘quvchi tomonidan individual tarzda yoziladi. Har bir o‘quvchi o‘ziga berilgan kartochkadagi muammolar yechimining taqdimotini qiladi hamda yuqoridagi muammolarga o‘z fikrini bildiradi.

3-bosqich: Yuqoridagi muammolarning yechimi yozilgan kartochkalarni o'qituvchi tomonidan doskadagi chizmaning, klasterning ustiga yopishtirilib, tarmoqlar hosil qilinadi. Bu bu tarmoqlarning kengayib borishi kartochkadagi muammolar yechimining variativligi va taqdimot etilgan kartochkalar soniga bog'liq bo'ladi.

Ushbu texnologiyani qo'llash orqali o'quvchilar mavzuda berilgan zamonaviy demografik muammolar bilan mukammal tanishadi, muammolarning yechimini topishga harakat qiladi. Texnologiya orqali o'qituvchi o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllanishiga erishadi. Shuningdek, o'quvchilar mazkur texnologiya orqali muammoli vaziyatni anglash, uni hal etish, mantiqan dalillash, muammoni hal etish usullarini mantiqiy ketma-ketligini tushunish, o'z javoblarining to'g'riligini dalillash va tekshirib qo'rish imkoniga ega bo'ladilar. "Geoklaster" texnologiyasini nafaqat demografik muammolar mavzusi, balki "Jahonning siyosiy xaritasi", "Jahon davlatlarining siyosiy tuzumi va boshqaruvi", "Jahon sanoati", "Jahon qishloq xo'jaligi", "Jahon transporti", "Xalqaro iqtisodiy aloqalar" hamda fanning regional qismida jahon mamlakatlarining geografiyasi bo'yicha ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu yaratilgan texnologiyadan nafaqat dars jarayonida, balki tadbirlarda, sinfdan tashqari ishlar va to'garak mashg'ulotlarida ham foydalanish mumkin.

2. "Kommunikativ suhbat" texnologiyasi. Geografiya ta'limida bu texnologiyani foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o'qituvchidan o'quv jarayoniga ijodiy yondashish, suhbat texnologiyasi usullaridan foydalana bilish, suhbat uchun savol va topshiriqlar tizimini ishlan chiqish, o'quvchilar o'rtasida munozaralarni ishlan chiqish talab qilinadi. "Jahon aholisi" bobining "Jahon aholisining soni, o'sishi va joylashuvi" mavzusida ushbu texnologiyani quydagicha qo'llash mumkin. Buning uchun sinf doskasiga A1 formatdagi vatman joylashtiriladi, uning chap qismiga mavzu bo'yicha vazifalar joylashtiriladi va o'ng tomoniga vazifaning yechimi yoziladi. O'quvchilar o'zlari uchun berilgan kartochkalarga ham suhbat, ham yozma tarzda chizmaga joylashtiriladi (2-rasm).



2-rasm. “Kommunikativ-suhbat” texnologiyasi.


3. “Raqamlar piramidasi” texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu texnologiyaning “Jahon aholisining etnik va diniy tarkibi” mavzusi misolida qo‘llanildi (3-rasm).

“Raqamlar piramidasi” texnologiyasini qo‘llashdan avval o‘qituvchi butun dars davomida mavzu asosida o‘tilgan raqamli ma’lumotlarni qo‘lidagi maxsus qog‘ozchaga yozib boradi. O‘quvchilar darsning mustahkamlash qismida ushbu chizmaning ichiga qog‘ozchalarni joylashtirishlari kerak bo‘ladi.

“Raqamlar piramidasi” texnologiyasini qo‘llash natijasida o‘quvchilar sanoat tarmoqlarini qay darajada to‘liq o‘zlashtirganliklari aniqlanadi. Ushbu texnologiyadan nafaqat “Jahon aholisi” bobida, balki darslikning raqamlar mavjud bo‘lgan barcha mavzulari bo‘yicha ham qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Geografiya ta’limi texnologiyalarini qo‘llash juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-metodik ishlar endi rivojlanmoqda.

O‘quvchilar “Raqamlar piramidasi”ni quydagicha to‘ldirishi mumkin



3-rasm. “Raqamlar piramidasi” texnologiyasi.

Mazkur tadqiqot jarayonida “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini “Jahon aholisi” bobini o‘qitish samarali bo‘lgan bir qator interfaol metodlar va o‘yinlar asosida quyidagicha takomillashtirilgan.

4. “Geo-7” metodi. Ushbu “Geo-7” metodini qo‘llash uchun “Jahon aholisi” bobining yakuni va umumlashtiruvchi darslar uchun tanlandi. “Geo-7” metodini qo‘llashning mazmuni shundan iboratki, o‘quvchilarga fan bo‘yicha reyting usulidagi 7 ta vazifa beriladi. Savollarga javob berish jarayonini dars sharoitidan kelib chiqib, og‘zaki yoki yozma tarzda o‘tkazish mumkin.




4-rasm. “Geo-7” texnologiyasi.

Savollar quyidagicha:

- 1). Aholisi eng ko‘p bo‘lgan 7 ta davlatni toping;
- 2). Aholisi tez o‘sayotgan 7 ta davlatni aniqlang;
- 3). Aholisining o‘sishi past 7 ta davlatni aniqlang;
- 4). Aholisining zichligi yuqori bo‘lgan 7 ta davlatni toping;
- 5). Aholisining zichligi kam bo‘lgan 7 ta davlatni toping;
- 6). Dunyodagi 7 ta aralash irqni aniqlang;
- 7). Yevropoid irqiga mansub 7 ta millatni yozing;
- 8). Mutloq soni eng ko‘p bo‘lgan 7 ta millatni yozing;
- 9). Jahondagi 7 ta dinni toping;
- 10). Atlas asosida Oltoy til oilasiga mansub 7 ta tilni yozing;
- 11). Soxta urbanizatsiya ko‘p bo‘lgan 7 ta davlatni toping;
- 12). Urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan 7 ta davlatni yozing.

“Geo-7” metodini “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanining barcha bo‘limlari yakunidagina emas, mavzularni mustahkamlashda ham foydalanish mumkin bo‘ladi (4-rasm).


5. “Georotatsiya” metodi. Ushbu so‘zning ma’nosi “aylanma”, “harakat” degan ma’noda ifodalanib, biror narsani tanlash va o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida qo‘llaniladi (5-rasm).



5-rasm. “Georotatsiya” metodi.

Grafik organayzerda Jahon mamlakatlarning tillari ko'rsatilgan bo'lib, qaysi davlatda qaysi til tarqalganligini topish kerak. Ma'lumotlar bir-biriga chiziq orqali bog'lanadi.

6. "Ortiqchasi qaysi" metodi. "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishda "Ortiqchasi qaysi" metodi ishlab chiqildi. metodni qo'llashda "Jahon aholisining etnik va diniy tarkibi" mavzusi misolida ko'rib chiqildi. Metodning organayzerida berilgan ma'lum mavzuga tegishli ma'lumotlarning to'rttasini va tegishli bo'lmagan bitta ortiqcha ma'lumotni o'quvchilar aniqlashi lozim bo'ladi. Masalan, 4 ta din berilgan bo'lsa, uning 3 tasi dunyoviy din hisoblanadi va bittasi ortiqcha (6-rasm).




6-rasm. "Ortiqchasi qaysi" metodi.

Bu texnologiyani qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil fikrlashi takomillashadi. O'z fikrini erkin bayon eta oladi. O'rganilayotgan geografik

materiallarning samaradorlik haqidagi ma'lumotlarning ishonchliligini oshiradi va o'quv jarayonini boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu metodni darsda ham elektron, ham qog'oz variantda qo'llasa bo'ladi. "Ortiqchasi qaysi" metodini "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanining barcha mavzularida qo'llash mumkin.

7. "Torozi pallası" metodi. Ushbu metod o'quvchilarda o'tilgan mavzu bo'yicha qancha ko'p bilimlarni eslab qolganliklarini sinab ko'radi. Bu metodni darsda guruhlarning o'zaro bellashuvi tarzida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Aytaylik darsning mustahkamlash qismida o'tilgan "Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi" mavzusi bo'yicha guruhlardagi o'quvchilarga savollar yozilgan karton kartochkalar beriladi. O'quvchilar savollarga javoblar yozib "Torozi pallası"ning o'z jamoasi qismiga qo'yadi. Bunda jamoalar belgilangan vaqt ichida tezkorlik bilan savollarga javob berib, pallani pastga egadigan bo'lsa shu guruh g'olib hisoblanadi (7-rasm).




7-rasm. "Torozi pallası" metodi.

"Torozi pallası" metodini darsda plastmassa bo'lagidan palla ko'rinishida yasash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metodni geografiya fanining har qanday mavzularida qo'llash mumkin.

8. “Venn diagrammasi” metodi. Ushbu metod diagramma-grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylananing kesishmasidan hosil bo‘ladi (8-rasm).

Bu diagrammani qo‘llashdan maqsad ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, turli va umumiy tomonlarini aniqlashda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Aytaylik “Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi” mavzusida mazkur diagrammani qo‘llash mumkin. Diagrammaning ikki qismiga “Urbanizatsiyaning ijobiy jihatlari” va “Urbanizatsiyaning salbiy jihatlari” mavzulari yoziladi. O‘quvchilar shu asosida diagrammani to‘ldiradilar.



8-rasm. “Venn diagrammasi” metodi.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh “Urbanizatsiyaning ijobiy jihatlari”ni ikkinchi guruh esa “Urbanizatsiyaning salbiy jihatlari”ni qismini to‘ldiradi.

2-bosqich. Ikki guruhga bo‘lingan o‘quvchilar birlashib doiraning o‘rta qismiga ikki mavzuning o‘xshashlik tomonlarini yozadi.


3-bosqich. Kichik guruhlarda bu xulosalarning umumiy hossalarni aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biron bir guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat tug'ilganda uning javobini to'ldiradilar.

5-bosqich. Boshqa guruh vakillari ikki tushunchani birlashtiruvchi xususiyatlarni o'qiydi. Boshqalar zarurat tug'ilganda uning javobini to'ldiradilar.

Umuman olganda "Venn diagrammasi"ni geografiya uchun yaratilgan metod deyish mumkin.

9. "Geomatematika" metodi. Ushbu metod geografiya fanining har qanday mavzularida qo'llash mumkin. Biron-bir mavzu ichidagi ma'lumotlarga mos muammolar aniqlanadi va barchasi jamlanadi. Keyin esa sing o'quvchilari guruh yoki yakka holda ushbu masalaga yechim izlaydi. Bu metodda "Jahon mamlakatlariing urbanizatsiyasi" mavzusi asosida ularga xos bo'lgan muammolar o'rtaga tashlanadi. O'quvchilar esa ularni umumlashtirgan holda yechim topishlari zarur bo'ladi (9-rasm).



9-rasm. "Geomatematika" metodi.

Ushbu metodni "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanining barcha mavzularida qo'llash mumkin.

II-BOB. “JAHON IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI” FANINI O‘QITISHDA O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Geografiya ta’limida o‘yinlardan dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda ishlarda foydalanish mumkin.

Dars jarayonida o‘yinlardan yangi dars mavzusini o‘rganishda, uni mustahkamlashda, o‘tgan dars mavzusini qaytarishda hamda o‘quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish va baholashda foydalaniladi.

Sinfdan tashqari ishlarda esa to‘garak yig‘ilishlarida, geografik kecha, «anjumanlar», baxslar-disputlar, konferensiyalar, seminarlar o‘tkazishda foydalaniladi.

Dars jarayonida foydalaniladigan o‘yinlar ixcham, qiziqarli va qisqa vaqt davom etadigan bo‘lishi lozim. Sinfdan tashqari ishlarda esa o‘yinlarning turlari ko‘paytiriladi va ularga ajratilgan vaqt ham yetarli, ya’ni davomli bo‘lishi mumkin. Bunday paytlarda o‘yinlarda ko‘pchilik o‘quvchilar ishtirok etishlariga imkoniyat yaratiladi.

Geografik o‘yinlar ham o‘ziga xos uslub bo‘lib, ular quyidagi sifatlar bilan ajralib turadi:

- sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘yinga ishtirok etadilar;
- mashg‘ulotlarda erkin muhit yaratiladi;
- o‘yin paytida o‘rtaga qo‘yilgan asosiy muammo yoki vazifani hal qilishda hamma o‘quvchilar faol qatnashadilar.
- har bir o‘yin qoidasi oldindan aniqlanadi va o‘yin o‘tkazishda unga amal qilinadi.

O‘yinlar yuqoridagi sifatleri bilan o‘yin qatnashuvchilariga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularni bilim olishga, ko‘proq narsani bilib olishga qiziqtiradi. O‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularga o‘z imkoniyatlarini tekshirib ko‘rishga undaydi, intizomni va uz bilimini amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Geografik o'yinlarning turlari. Geografiya ta'limida foydalaniladigan o'yinlar juda xilma-xil. Ularni mazmuni va foydalanish maqsadi bo'yicha turlarga ajratiladi:

A) Maqsadlari bo'yicha o'yin turlari:

- 1) Informativ o'yinlari.
- 2) Mashq o'yinlari.
- 3) Mustahkamlash o'yinlari.
- 4) Nazorat o'yinlari.

O'yinlarning yuqoridagi turlari darsning qaysi qismida va qanday maqsad uchun foydalanishga bog'liqdir.

Informativ o'yinlarining asosiy maqsadi ta'lim mazmunini o'quvchilar tomonidan eslab qolishlariga yordam berishdir. Bu o'yinlardan yangi dars mavzusini o'rganishda foydalanadi.

Mashq o'yinlari o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Mustahkamlash o'yinlari utilgan mavzularni takrorlash, o'quvchilar olgan bilim va malakalarini mustahkamlashda qo'llaniladi. O'yinlardan foydalanish takrorlash darslarini qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Nazorat o'yinlari o'quvchilarning bilim va malakalarini hamda ko'nikmalarini tekshirish va baholashda foydalaniladi. Bu o'yinlar nazorat usullarini xilma-xil qilishga, qiziqarli shaklda o'quvchilarning bilim va malakalarini qisqa vaqt ichida tekshirish hamda baholashga imkon beradi.

Yuqoridagi o'yin turlari ayrim holda yoki birgalikda qo'llanilishi mumkin. Bu eng avvalo o'qituvchi tomonidan tanlangan maqsadga bog'liqdir.

B) Mazmuniga ko'ra o'yin turlari:

- 1) Savol-javob o'yinlari.
- 2) Stol ustiga o'tkaziladigan o'yinlar.
- 3) Vaziyatli o'yinlar.
- 4) Magnitli doska yordamida o'tkaziladigan o'yinlar.
- 5) Faraz qilish o'yinlari.

6) Test savollari yordamida o'tkaziladigan o'yinlar.

Savol-javob o'yinlarida o'yinlar o'quvchilar o'rtasida musobaqa tarzida o'tkaziladi. Bunda sinfni bir necha komandalarga bo'lish mumkin. O'yin og'zaki, yozma, konkurs, ishi tarzida o'tkaziladi. Savollar viktorinalar, topishmoqlar, jumboqlar yoki krossvord, chaynvord rebuslar tarzida bo'lishi mumkin.

Stol ustiga o'tkaziladigan o'yinlarda geografik loto, geografik domino, karta bo'laklari, kubiklar va boshqalar yordamida o'tkaziladi.

Vaziyatli yoki rolli o'yinlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga ma'lum vazifa yoki muammo qo'yiladi. Bu vazifa yoki muammoni hal qilishda o'quvchilar injenerlar, olimlar, menejerlar, davlat rahbarlari yoki xo'jalikning turli tarmoqlari xodimlari rolini bajarishib o'zaro munozara qiladilar.

Faraz qilish o'yinlarida o'quvchilar geografik karta bo'yicha «hayoliy sayohat»da bo'lishadi va unda «ko'rgan» narsa va hodisalarini tasvirlab berishadilar.

Magnitli doska yordamida o'tkaziladigan o'yinlarida geografik loto, domino, chaynvordlarni magnitli doska yordamida hamma uchun ko'rinadigan tarzda yechish mumkin. Bu o'quvchilar uchun juda qiziqarli o'yin hisoblanadi.

Test savollari yordamida o'tkaziladigan o'yinlarda asosan turli shakl va mazmunga ega bo'lgan testlardan foydalaniladi.


O'qituvchi dars jarayonida yoki sinfdan tashqari ishlarda o'yinlardan foydalanishda yuqorida keltirilgan o'yin turlarini to'g'ri tanlashga e'tibor berishi zarur. To'g'ri tanlangan o'yinlarning samarasi yuqori bo'ladi.

Geografiya darslarida qo'llaniladigan o'yinlarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

- "Tabiiy geografik" o'yinlar;
- "Iqtisodiy-ijtimoiy geografik" o'yinlar.

"Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanining "Jahon aholisi" bobi mavzulari uchun ishlab chiqilgan o'yinlarni quyida ko'rishingiz mumkin.

1. **“Geografik pochta” o‘yini.** Sinf doskasiga kattaligi 15x10 sm bo‘lgan 8 ta konvert xaltachalar yopishtiriladi. Ularga “Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi” mavzusi asosida quydagi konvert nomlari tayyorlanadi (10-rasm)



10-rasm. “Geografik pochta” o‘yini.

- 1) MONGOLOID
- 2) YEVIPOID
- 3) NEGROID
- 4) ERKAKLAR
- 5) AYOLLAR
- 6) BOLALAR
- 7) KATTALAR
- 8) KEKSALAR

O‘yin ishtirokchilariga teng miqdorda yuqorida nomlari yozilgan konvert nomlariga joylashtirish uchun rasmlar va iboralar yozilgan kartochkalar beriladi. O‘quvchilar kartochkalarni, ya’ni konvert nomlariga mos keluvchi konvertlarga soladi. Bunda geografik ob’ektlarni «manzil»ini to‘g‘ri va tez topgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi. O‘yinni darsning mustahkamlash qismida yoki to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

2. **“Geografik diktant” o‘yini.** Ushbu o‘yinning asosiy mazmuni matn bilan ishlashdan iborat. O‘yinda matn beriladi va matn ichida tushirib qoldirilgan so‘zlar bo‘ladi. O‘quvchilar tushirib qoldirilgan matnlarni to‘ldirishlari kerak bo‘ladi (11-rasm). Dars mavzusi: “Jahon aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi”.

Mavzu: “Jahon aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi”

Jahon aholisining soni, 2018-yil ma’lumotlariga binoan, _____ kishidan ortiqdir. Sayyoramiz aholisi bu miqdoriy marraga yetganligining o‘ziga xos tarixi mavjud.

Uzoq davrlar davomida insoniyatning asosiy qismi _____, _____ va _____ qit’alarida istiqomat qilgan edi. Buyuk geografik kashfiyotlar ko‘p sonli aholining yangi topilgan yerlarga ko‘chib o‘tishiga sababchi bo‘ldi va uning natijasida _____ o‘rtasida aholi sonining qayta taqsimlanishi yuz berdi.

Jahon aholisining o‘rtacha zichligi 1 km² ga _____ kishidan ortiq bo‘lmoqda. _____ aholi zichligi darajasi eng yuqori bo‘lgan qit’a hisoblanib, uning sharqiy, _____ va janubi-sharqiy qismlarida aholi zichligi ayniqsa yuqoridir. Amerika, Avstraliya va _____ qit’alarining _____ tomonidan dastlab o‘zlashtirilgan qismlarida aholi zichligi nisbatan yuqori.

11-rasm. “Geografik diktant” o‘yini.

3. “Filvord” o‘yini. Sinfdagi barcha o‘quvchilar uchun A4 formatdagi qog‘ozga “Filvord” krossvord beriladi. Ularga berilgan krossvorddagi vazifa “Jahon aholisining etnik va diniy tarkibi” mavzusi asosida tayyorlanadi (12-rasm).

R	U	M	I	L	L	I	S	L	O
Q	S	L	A	B	A	X	R	I	M
A	B	I	D	U	T	I	N	S	T
E	X	A	D	D	N	I	G	L	I
L	A	N	I	U	Z	M	Z	I	A
A	T	K	A	T	O	L	I	K	N


12-rasm. “Filvord” o‘yini.

Rus, Millat, Xristian, Budda, Islom, Ingliz, Katolik, Qabila, Elat, Induizm, Din.

O'quvchilar bu filvordni kalit so'zlar asosida xarflarga chizish orqali javoblarni yozadilar. Bu filvordni geografiyaning barcha darslari uchun amalda qo'llasa bo'ladi

4. “Shahar qaysi daryo bo'yida” o'yini. O'quvchilardan biri sinf xartasiga chiqadi. Boshqa o'quvchilar navbatma-navbat 5-ta shahar daryo nomini aytadi. Xaritadagi o'quvchi shahar nomini topishi kerak bo'ladi. Bu o'yin “Jahon mamlakatlarning urbanizatsiyasi” mavzusi doirasida o'tkaziladi. Masalan, Toshkent – Chirchiq daryosi, Parij – Sena daryosi, Vashington – Potomak daryosi, London – Temza daryosi va h.k.

5. “Eng, Eng, Eng...” o'yini. Mazkur o'yin “Jahon aholisi” bobining “Amaliy mashg'ulot” mavzusida qo'llaniladi. Bu o'yin o'quvchilarga uy vazifasi sifatida beriladi. Bundan oldin o'tilgan 4 ta mavzu asos qilib olinadi va Eng, Eng, Eng... ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ma'lumotlar to'planadi. Darslikda berilmagan ma'lumotlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir (13-rasm).



13-rasm. “Eng, Eng, Eng...” o'yini.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va yangicha ko'rinish kasb etgan interfaol metodlar va o'yinlar mavzuning mazmun mohiyatini maktab o'quvchilari ongiga tezroq, soddaroq va amaliy jihatdan asoslab berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Natijada, “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o'qitishda yaratilgan multimedia ilovalari, pedagogik texnologiyalar, takomillashtirilgan interfaol metodlar

va o‘yinlar orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda takomillashtirish, ularni ma’naviy-ahloqiy intellektual jihatdan rivojlantirish, bu jarayonni bir-biriga uyg‘unlashtirish, faoliyatning natijasini hamjihatlikda tahlil qilishga imkon beradi.

“Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda o‘qituvchi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash uchun quydagilarni bilishi zarur:

- o‘qituvchilarning fanni o‘zlashtirish faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishni bilishi;

- o‘rganiladigan mavzuning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda o‘quv topshiriqlarini bajarish yuzasidan ko‘rgazmalarni tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- o‘quvchilarning fanni o‘zlashtirish faoliyati va olingan natijalarni tahlil qilish, tegishli hollarda zarur o‘zgartirishlar kiritish usullari, turli pedagogik muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng oqilona usullarini egallagan bo‘lishi lozim.

Qo‘llanmada tavsiya etilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fani mavzularini o‘qitishda o‘rinli foydalanish o‘quvchilarda fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

**III-BOB. “JAHON IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI”
FANINI O‘QITISH BO‘YICHA QISQA KO‘RINISHDAGI DARS
ISHLANMAMALAR**

“Kim ko‘p eslab qoldi” darsi.

Treningning maqsadi: O‘quvchilarning geografiya fani bo‘yicha eslab qolish qobiliyati, xotirasi, idrok etish jarayonlarining rivojlanishi va geografik terminlar haqida tushuncha hosil qilish.

Treningning o‘tkazish qoidasi: sinfdagi o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi va guruhlardan 3 nafardan jami 6 nafar o‘quvchi tanlab olinadi. O‘qituvchi tomonidan “Jahon aholisi” bobiga oid termin va tushunchalar og‘zaki aytiladi:

- irq;
- mongoloid;
- yevropoid;
- negroid;
- avstraloid;
- aralash irqalar;
- metis;
- mulat;
- sambo;
- aholining jinsiy tarkibi;
- aholining yosh tarkibi;
- bolalar;
- kattalar;
- keksalar;

yuqorida sanab o‘tilgan geografik termin va tushunchalarning mazmunini aytib o‘tishlari kerak bo‘ladi. Bu guruhlarning o‘zaro bellashuvi tarzida o‘tadi.

“Qaysi biri mos” darsi.

Texnologiyaning maqsadi: O‘quvchilarning geografiya fani bo‘yicha topqirlik, fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bilimlarini oshirishdan iborat.

Texnologiyasi o‘tkazish qoidasi: O‘quvchilar uchun “Jahon aholisi”ning nomlari beriladi va ularga javob qatorlarini to‘g‘ri joylashtirish kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilar jadvalda berilgan davlatlarga mos bo‘lgan bosh kataklarni to‘ldirishi zarur bo‘ladi (1-jadval).

“Qaysi biri mos” texnologiyasi jadvali

1-jadval

№	Mamlakatlar	Tili	Dini	Irqi
1	Mo‘g‘uliston			
2	Braziliya			
3	Kanada			
4	Yangi Zelandiya			
5	Yaponiya			
6	Eron			
7	Qirg‘iziston			
8	Fransiya			
9	Mali			
10	Polsha			

Tillar: Fors, Yapon, Polyak, Fransuz, Qirg‘iziston, Fransuz, Ingliz, Mo‘g‘ul, Portugal, Ingliz-Fransuz.

Dinlar: Xristian, Islom, Xristian, Budda, Xristian, Sintoizm, Xristian, Islom, Xristian, Xristian.

Irqlar: Yevropoid, Mongoloid, Yevropoid, Yevropoid, Mongoloid, Yevropoid, Negroid, Yevropoid, Mongoloid, Yevropoid.

Dars mashg'uloti.

Mavzu: Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi.

Darsning ta'limiy maqsadi: jahon aholisining xalqlari, ularning tillari, etnik tarkibi, millatlar, elatlar, qabilalar hamda dunyo aholisining sig'inadigan dinlar va ular e'tiqod qiladigan davlatlar haqida bilim berish.


Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga jahon aholisining etnik va diniy tarkibi mavzusini o'rgatish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va iqtisodiy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: jahon aholisining etnik va diniy tarkibi mavzusini o'rganish uchun geografik axborotning turli manbalarini kompleks tarzda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish hamda o'quvchilarning nutq va muloqot madaniyati, ularning darsdagi faolligini oshirish.

Darsda foydalaniladigan texnologiyalar va metodlar: treninglar, tushuntirish, "Munozarali savol-javob", "Zinama-zina".

Dars jihozlari: Dunyoning siyosiy xaritasi, 9-sinf darsligi, atlas, mavzuga oid qo'shimcha adabiyotlar, internet ma'lumotlari, dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi bo'yicha rasmlar, tarqatma materiallar.


Darsning borishi: Darsda o'tilgan "Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi" mavzusini mustahkamlash uchun "Munozarali savol-javob" metodidan foydalanildi (14-rasm).



14-rasm. "Munozarali savol-javob" metodi.

Darsning yangi mavzu bayoni qismida “Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi” mavzusi slayd-taqdimot ko‘rinishida olib boriladi. Bunda o‘quvchilar xalqlarning tarkiblari haqida ma’lumotga ega bo‘lish orqali mustaqil o‘zlashtiradilar.

Darsning yangi mavzuni mustahkamlash qismida “Zinama-zina” metodi asosida olib boriladi. O‘quvchilar darsda guruhlariga ajratilmaganligi uchun sinf o‘quvchilari tezkorlik bilan savolga javob berish orqali baholanadi (15-rasm).



15-rasm. “Zinama-zina” metodining chizma modeli.

O‘quvchilar uchun jami 10 ta savollar beriladi. Savollarning savollarning darajasi yuqoriga ko‘tarilgan sari qiyinlashib boradi (2-jadval).

“Zinama-zina” metodining savollar jadvali

2-jadval

1	Xitoyda eng keng tarqalgan din?	1	E’tiqodchilar soniga ko‘ra jahondagi ikkinchi din qaysi?
2	Elat nima?	2	Qabila nima?
3	Turkiy xalqlar qaysi til oilasiga kiradi?	3	Dunyoda qancha til oilalari mavjud?
4	Dunyoda eng ko‘p gaplashiladigan 5 til qaysi?	4	Iudaizm dini qaysi davlatda keng tarqalgan?
5	Dunyoda soni 50 mln kishidan ko‘p nechta millat bor?	5	Islom dinining shia mazhabiga qaysi davlatlar e’tiqod qiladi?

Dars mashg‘uloti.

Mavzu: Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi.

Darsning ta‘limiy maqsadi: jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi uning mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi haqida bilim berish.


Darsning tarbiyaviy maqsadi: o‘quvchilarga jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi haqida bilim berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, o‘quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va iqtisodiy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi mavzusini o‘rganish uchun geografik axborotning turli manbalarini qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish hamda darsdagi faolligini oshirishni shakllantirish.

Darsda foydalaniladigan texnologiyalar va metodlar: treninglar, onlayn dars mashg‘ulotlari, tushuntirish, “Munozarali savol-javob”, “Demografik xarita” metodi.

Dars jihozlari: Dunyoning siyosiy xaritasi, 9-sinf darsligi, atlas, mavzuga oid qo‘shimcha adabiyotlar, i-Board elektron doskasi, noutbuk, internet ma‘lumotlari, dunyo aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi bo‘yicha rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi: Darsda o‘tilgan uy vazifasini so‘rash qismida o‘tilgan “Dunyo aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi” mavzusini takrorlash uchun “Demografik xarita” nomli didaktik metoddan foydalaniladi. Bu xarita A1 formatga ega bo‘ladi (16-rasm).



16-rasm. “Didaktik xarita” metodi.

Ushbu metoddan foydalanish jarayonida o‘quvchilar bundan avvalgi darslarda egallagan bilimlarini boshqalarga berish layoqatiga ega bo‘lishlari muhim sanaladi. O‘quvchilar guruhlar asosida ma’lumotlarni topishi hamda ular bilan ishlash imkoniyati tug‘iladi. Guruhlar dunyo xaritasida berilgan nuqtaning o‘rnidagi davlatlarga mos demografik holatni va mavjud demografik muammoning xususiyatlarini aytib o‘tishlari lozim bo‘ladi. Keng ma’lumot bergan o‘quvchi ko‘p ball yig‘adi va yaxshi baholanadi. Mazkur metodni bajarishda o‘quvchilar quydagi qoidalarga amal qilishi lozim bo‘ladi:

- darsda dunyo xaritasida joylashtirilgan belgining orqa qismida o‘sha davlatga mos rasm joylashtirilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning davlatning demografik muammosini aniqlashiga yanada yordam beradi;

- g‘oya va fikrlarni yozib qisqa yozib borish hamda o‘quvchilar tomonidan berilayotgan fikrlar ketma-ketlikga asoslangan bo‘lishi.

Darsning yangi mavzu bayoni qismida *“Dunyo aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi”* mavzusi slayd-taqdimot ko‘rinishida olib boriladi. Bunda o‘qituvchi mavzu asosida beriladigan infografik ma’lumotlarga e’tibor qaratiladi (17-rasm).



17-rasm. “Dunyo aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi” mavzusi taqdimoti.

“Tahliliy mashg‘ulot” darsi.

Texnologiyaning maqsadi: O‘quvchilarning geografiya fani bo‘yicha berilgan mavzu bo‘yicha tanqidiy fikrlash, muammoni aniqlash, uning ustida ishlash va muammoni yechish kabi qobiliyatini o‘stirish va bilimlarini oshirishdan iborat.

Texnologiyasi o‘tkazish qoidasi: O‘quvchilarga “Jahon urbanizatsiyasi” mavzusining dunyo iqtisodiyoti uchun “Ijobiy”, “Salbiy”, “Kuchli” “Kuchsiz” jihatlari haqida o‘z bilgan ma’lumotlarini yozadi va yakunda xulosa chiqaradi. Buning uchun o‘quvchilar chizmada berilgan kataklarning ichiga marker yordamida tahliliy ma’lumotlarni yozadi (18-rasm).

**Ijobiy
jihati**

**Salbiy
jihati**

**Kuchli
jihati**

**Kuchsiz
jihati**

Xulosa


18-rasm. “Tahliliy mashg‘ulot” darsi.

III-BOB. “JAHON IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI” FANINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Geografik ta’lim tizimini modernizatsiyalashning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish hisoblanadi. AKTdan foydalanishning yangi yo‘nalishlari va usullari talabalarning axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan va noyob zamonaviy kompyuterlar imkoniyatlari bilan bog‘liq ochiq texnologik o‘rganish imkoniyatlari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bir tomondan, o‘quvchilarga kerakli o‘quv materiallarini tezkorlik bilan yetkazib berish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, o‘quv jarayonida turli shakl va usullarni tashkil etish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanishga, modellashga, elektron darsliklarni, interfaol ko‘rgazmalarni foydalanishga, internetda ishlashga va kompyuterdagi o‘qitish dasturlari bilan o‘qitishga asoslanadi. Axborot-metodik materiallar aloqa vositalaridan foydalanish orqali ta’limni yaxshilashga qaratilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bir tomondan ta’lim oluvchilarga kerakli bilimlarni tezkorlik bilan yetkazishga, ikkinchi tomondan, o‘quv jarayonida har xil usul va metodlar yordamida darslarni tashkillashtirishga imkoniyat yaratadi.



19-rasm. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shakllari

Kunduzgi o‘qitish – bu jarayonda o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti asosida darslarni tashkillashtirish shaklidir.

Sirtqi o‘qitish – o‘quv jarayonining masofaviy ishtirokchilarining interaktiv o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan o‘quv jarayonini tashkil etish shaklidir. Masofaviy ta’lim texnologiyalari amaliyotga yo‘naltirilgan, samarali o‘qitish, ta’limda faol va individual yo‘naltirilgan yondashuvlarga o‘tish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalarini shakllantirish, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining axborot madaniyatini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlash o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ma’lumotlarning katta manbasiga kirish va ular bilan ishlash beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kelajak avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, tadbirkorlik iqtidori, ijodkorligi, erkin rivojlanishiga yo‘l ochadigan pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishda ko‘plab qulayliklar mavjud. Hozirgi zamonda “o‘qish va o‘rganish” va mustaqil mehnat qilish, manfaatdor, ishonchli, mas’uliyatli va zukko shaxs bo‘lib yetishish tamoyili ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan mavzularini yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, xususan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan quydagi multimedia ilovalaridan foydalanish mumkin.

Google Earth dasturi geografiya fani uchun juda ahamiyatli dastur hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’limdagi geografiya darslarining deyarli barcha mavzularda xaritalardan foydalaniladi va unda Yer yuzasini va uning barcha qismlarini tasvirlab beruvchi, iborali qilib aytganda “Makrotasvirdan, mikrotasvirgacha” ko‘rish imkoniyatining mavjudligidir. Bu dasturda sun’iy yo‘ldosh orqali olingan butun Yer yuzasining fotosuratlardan iborat tasvirlari joylashtirilgan. Ushbu dastur Yer sharining aynan ko‘rinishini, bo‘rttirma va 3D o‘lchamli ko‘rinishda tasvirlaydi (20-rasm).

“Google Earth” geografiya ta’limining quydagi:

5 sinf – “Tabiiy geografiyaning boshlang‘ich kursi”;


6 sinf – “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi”;

7 sinf – “O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursi”;

8 sinf – “O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursi”;

9 sinf – “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursi”;

10 sinf – “Amaliy geografiya” kursida foydalanish o‘quvchilarda yetarlicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy yordam beradi. Umuman olganda dasturdan geografiya ta’limidagi deyarli barcha mavzularda foydalanish mumkin.



20-rasm. “Google Earth” dasturi.

Dasturdan foydalanuvchilar uchun juda ko‘p qo‘shimcha ma’lumotlar mavjud. Masalan, mamlakatlar, chegaralari, aholi punktlari, daryolar, ko‘llar, suv omborlari, aeroportlar, avtomobil va temir yo‘llar kabi ma’lumotlar joylashgan. Bundan tashqari, ko‘plab shaharlar uchun batafsilroq ma’lumotlar zarur bo‘lsa ulardagi ko‘cha nomlari, do‘konlar, yoqilg‘i quyish stansiyalari, mehmonxonalar mavjud. Dasturda mamlakatlar va shaharlardagi diqqatga sazovor joylarning 3D binolar platformasi joylashtirilgan.

“Google Earth” dasturining qo‘shimcha imkoniyatlari sifatida quydagilarni aytib o‘tish mumkin:

- “Google Earth” foydalanuvchi uchun zarur bo‘lgan tasvirlar va xaritalarni saqlab qolish hamda chop etish imkoniyati;
- videotur va ularni saqlab qolish imkoniyati;
- bosib o‘tgan yo‘lning chiziqli ko‘rinishda namoyish etilishi, ularda belgilari va masofalarni o‘lchash imkoniyati;
- biror hududning eski va yangi tasvirlarining mavjudligi (bu landshaftlar ko‘rinishini tahlil qilish imkoniyati);
- parvoz simulyatorining mavjudligi;
- dengiz va okean tubining uch o‘lchamli xaritasini ko‘rish imkoniyatini taqdim etishi;
- geosana platformasining mavjudligi;
- uyali telefonlar uchun dasturning soddalashtirilgan Java versiyasi mavjudligi;
- Yer landshaftlarini asl holida ko‘rish imkoniyati.

“Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanida “Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi” mavzusini o‘tishda dasturdan foydalanish o‘quvchining dunyo haqidagi tasavvurini yanada o‘stirishga xizmat qiladi. Darsda o‘qituvchi mazkur dasturdan foydalanib mavzu asosida quydagi ma’lumotlarni berish mumkin:

- shaharlar va qishloqlarning hududi;
- shaharlarning transport-kommunikatsiya tarmoqlari;
- aholi punktlarining 3D formatdagi tasvirlari;
- aholisi siyrak va zich hududlar;
- “soxta urbanizatsiya” tushunchasi haqida tasvirlar orqali ma’lumot olish;
- “aglomeratsiya” haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- “megapolis” haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- jahondagi eng yirik 6 ta megapolis hududining kattaliklarini tasvirlash.

iSpring dasturi. “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanining “Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi” mavzusida “iSpring” dasturidan foydalanish bilimlarni tekshirish va uni mustahkamlashda ham zarur dastur hisoblanadi. Dasturda 3D kitob yaratish dasturi o‘quvchilarda fan mavzularini o‘zlashtirishda qo‘shimcha ma’lumotlar bilan tanishtirish, rasmlar va slayd orqali tasavvur va ko‘nikmalar hosil bo‘lishida imkoniyat yaratadi. Ushbu dastur o‘qituvchiga mavzuni tushuntirish jarayonini bir necha marta yengillashtiradi.


Bilimlarni tekshirish o‘qitish jarayonining muhim va majburiy qismi hisoblanadi. Uning maxsus vazifasi barcha o‘quvchilarning o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, tafakkurlari o‘sishi, amaliy ko‘nikmalarni, mustaqil bilim olishlarini aniqlashdir. Shu bilan birga bilimlarni tekshirish o‘qitish xarakteriga ega bo‘lishi kerak: xususan takrorlash orqali o‘rganilgan o‘quv materialini tizimlashtirish va umumlashtirish, mavzuni chuqurlashtirish va mustahkamlashga muvofiq kelishi kerak. Bu masalalarni hal etishda pedagogik testlardan foydalanish samarali natija beradi. Kompyuterni qisman biladigan fan o‘qituvchisi ham “iSpring” dasturi uchun testlar tuzib, ulardan darslarda foydalanishi mumkin. Kompyuter tarmoqlari mavjud bo‘lsa, test natijalari markazlashtirilgan holda yig‘ilib, topshiriq natijalari o‘quvchilar tomonidan o‘qituvchiga jo‘natiladi. O‘qituvchi ularni o‘ziga qulay paytda baholashi va analiz qilishi mumkin. Bunday holatda improvizatsion – texnologik metodni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bu metod orqali test topshiriqlarini grammatik jihatdan baholash mumkin. Bu test topshiriqlari o‘quvchilarni to‘g‘ri javob topishi uchun mantiqiy fikrlashiga yoki to‘g‘ri javob topish uchun intellektual jihatidan o‘ylanishiga majbur qiladi.

“iSpring” dasturining test topshiriqlari 11 tur bo‘yicha ishlaydi. “Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi” mavzusida fanidan “iSpring” test savollari (21-rasm) ishlab chiqilgan.

O‘quvchi “iSpring” test savollariga ixtiyoriy javob beradi. Buning uchun o‘quvchi birinchi navbatda savollar bilan tanishib, diqqatini jamlab, undan keyin sodda (oddiy) topshiriqlarni tanlab, to‘g‘ri javoblarni belgilaydi. O‘quvchi

savollarni varaqlay olmaydi. Savollar qat'iy ketma-ketlikda keladi. Har bir test savoli uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt tugagandan so'ng, dastur navbatdagi topshiriqqa o'tadi. Bu holat esa yonma-yon o'tirgan o'quvchilarning test savollari ekranda bir xil bo'lmasligini ta'minlaydi.

Geografiya fanidan "Jahon aholisi" bobining "Jahon aholisining jinsiy, irqiy" tarkibi



Nostantart test savollari

Начать тест

Вопрос 1 из 10

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 10 из 10

Dunyoda erkaklar ulushi 50.5 % ni tashkil etadi.

To'g'ri

Noto'g'ri



✔ Правильно

ОК

Вопрос 3 из 10

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 10 из 100

Rasm, termin va tushunchalarning bir-biriga mosini toping?


	40 %
Amerikaning mongoloid irqidagi xalqlari	
Keksalari eng ko'p region	Hindular va Eskimoslar
Yevropoid	Yevropa

Отправить

Вопрос 6 из 10

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 10 из 100

Afrikadagi aholisi eng ko'p davlatni aniqlang?



Очистить

Отправить

Вопрос 7 из 10

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 20 из 100

Afrikaning Niger davlatida yoshlar salmogi necha % ga teng?

52 %

48 %

50 %

54 %

Отправить

Вопрос 9 из 10

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 40 из 100

Yevrosiyoda yashovchi irqalar qaysilar?

Yevropoid

Avstraloid

Negroid

Mongoloid

Отправить

21-rasm. "iSpring" dasturida tayyorlangan test savollari.

Dasturda testni bajarish jarayonida o'quvchilarda ko'chirish yoki yordam olish kabi salbiy holatlar kuzatilmaydi. O'quvchilarning bir-biri bilan gaplashishiga yoki adabiyot varaqlashiga vaqti bo'lmaydi. Masalan, test 100 ta savoldan iborat bo'lsa, "iSpring" so'rovi bilan 100 ta savoldan 25 tasi tanlanadi. Natijada tuzilgan test savollarining ko'p variantlilik ta'minlanadi. Kompyuter o'quvchiga qilgan xatolarini ko'rish imkonini beradi. To'g'ri javoblar yashil rangda yoki "to'g'ri" belgilanadi. O'quvchi test natijalarini o'z vaqtida, shuningdek, katalogdagi "Результаты" (natijalar) papkasidan ko'rishi mumkin bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchi o'quvchilarda "iSpring" dasturi bilan ishlay olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

"iSpring" dasturi "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishda tayyorlangan test savollaridan foydalanish o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning eng qulay va samarali usullaridan biri hisoblanadi. Fandagi bu yangilik-faqatgina g'oya, yondashuv, metod, texnologiya, shunchaki taqdim etilgan va hali foydalanilmagan holatdagi emas, balki innovatsion jarayonning majmuaviy va alohida tarkibiy qismi bo'lib, o'zida o'zgaruvchan sharoitlarda va holatlarda ta'lim-tarbiya masalalarini yetarlicha samarali hal etishga imkon beradi.

"Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda "iSpring" dasturi asosida tayyorlangan test savollaridan foydalanish bilan birga fan bo'yicha yaratilgan psixologik ilmiy-amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantirish o'zining samarali natijasini beradi. Shu maqsadda "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishda o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni psixologik ilmiy-amaliy mashg'ulotlar orqali shakllantirish usullari yaratildi.

Yuqoridagi multimedia ilovalarini "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanining barcha mavzularida qo'llash mumkin. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan texnologiyalarning aksariyati mavzuning mazmun mohiyatini maktab o'quvchilarining ongiga tezroq, soddaroq va amaliy jihatdan asoslab tushuntirish maqsadida ishlab chiqildi.

Ma'lumki shaxs manbani o'qiganda – 10%, eshitganda – 20%, jarayonni ko'rganda – 50%, hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlab qoladi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, geografiya ta'limida multimedia ilovalaridan foydalanish o'quvchilar olgan bilimlarni uzoq vaqt saqlab qolish, hayotiy ehtiyojlarda foydalanish mumkin bo'ladi va ta'limda sifat darajasining o'sishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi kabi multimedia ilovalari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlashi takomillashadi. O'z fikrini erkin bayon eta oladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasi rivojlanadi.

XULOSA

Mazkur **“Geografiyani o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish”** deb nomlangan metodik qo'llanma asosida quydagi asosiy xulosa va tavsiyalarni aytish mumkin:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitish samaradorligini yanada oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan kengroq foydalanish.

2. Geografiya fanida o'qitishning innovatsion yondashuvlari joriy etib borilayotgan sharoitda zamonaviy ta'limiy talab va ehtiyojlariga monand tarzda yanada mukammallashtirish va undan maktab geografiyasining boshqa sinflarida ham qo'llash borasida rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanishni kengaytirish lozim.

3. Metodik qo'llanma natijalaridan umumta'lim maktabi o'qituvchilarining malaka oshirish kurslari o'quv rejasiga ushbu fanga oid yaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish amaliyotini keng joriy etish lozimligi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdiyeva Z.A Geografiya fanida noan’anaviy dars uslublaridan foydalanish. – Navoiy, 2003. – 68 b.
2. Abdug‘aniyev O. Geografiya dasrlarida texnika vositalaridan foydalanish. – T.: O‘qituvchi, 1995
3. Alimqulov N.R., Abdullayev I .H., Holmurodov Sh.A. Amaliy geografiya. – T.: 2015.
4. Vahobov H, Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. Nodirabegim.–T .: 2021. – B. 22-34
5. Vahobov H., O.Mirzamahmudov. Geografiya o‘qitish metodikasi. - Namangan. 2016. – B. 4-11
6. Vahobov H, Zaynitdinov. Geografiya o‘qitish metodikasi. Universitet.–T .: 2000. – B. 38
7. Maksakovskiy V.P. Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumta’lim maktablari 10-sinfi uchun darslik. O‘qituvchi, 1995
8. Musayev P, Qurbonniyozov. Geografik o‘yinlar. T.: “O‘qituvchi”. 1990. – B. 120-155
9. Mo‘minov O. Geografiya ta’limi metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1986. – B. 208
10. Nikadambayeva H.B, Ro‘ziyeva D.I., Karabazov Z.A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini interfaol metodlardan foydalanib o‘qitish imkoniyatlari. T.: 2017. – B. 4
11. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M., Fedorko V. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. Darslik. – T.: O‘zbekiston. 2019
12. Qo‘ldasheva M.N. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. fal. dok. (PhD)...diss. – Namangan. 2020. -131 b
13. Qurbonniyozov R. Geografiya o‘qitish metodikasi. Geografiya ta’limi uchun qo‘llanma. – Urganch. 2001. – B. 212 143
14. G‘ulomov, R.Abdullayev, R.Qurbonniyozov. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Tafakkur. – T.: 2014. – B. 5-32

Veb saytlar

15. www.geografiya.uz
16. www.geograf.uz
17. www.ispring.ru
18. www.google.com

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I-bob. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	6
II-bob. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda o‘yinlardan foydalanish.....	20
III-bob. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitish bo‘yicha qisqa ko‘rinishdagi dars ishlanmamlar	27
IV-bob. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish.....	34



Abdullayev Madiyar Daniyarovich – 1988 yilda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida tug‘ilgan. 2009-yilda Toshkent viloyat davlat pedagogika institutining Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishini, 2021-yilda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi magistratura bosqichini tugatgan.

Hozirgi kunda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi 22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi lavozimida faoliyat yuritadi. Toifasi – oliy. Staji – 14 yil.

Telegram: [@madiyar_abdullayev](https://t.me/madiyar_abdullayev)